

Hujjat qabul qilish muddati 2020 yil 20 avgustga qadar uzaytirildi

// 27.07.2020

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/priem-rxtu-2020>

Hurmatli abituriyentlar!

Abituriyentlar va ularning ota-onalari takliflariga hamda hujjat topshiruvchilarning soni ko'pligini hisobga olgan holda Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahar filialining Qabul komissiyasi qarori bilan hujjat qabul qilish muddati 2020 yil 20-avgustga qadar uzaytirildi.

MDH davlatlaridagi yetakchi universitetlardan birida o'qish imkoniyatini boy bermang!

Kimyo – bu mo'jizalar sohasi, unda insoniyatning baxt-saodati yashiringan bo'lib, aynan shu sohada inson aql-zakovati bilan katta kashfiyotlar amalga oshiriladi.

Sizni universitetimizda ilm-fan, bilim, yangi kashfiyotlar, foydali ma'lumotlar, yangi tanishlar, quvonch va tabassum kutmoqda! Kimyo sizni kutmoqda!

Qo'shimcha ma'lumot uchun telefon raqami: +998997849344

Bizning telegram kanal: <https://t.me/dmuctruz>